Tahlil va natijalar. Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi [7].

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'limning mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilay olish, ta'lim metodlari, shakllari, vositalarini to'g'ri tanlay bilish, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan yaratilgan, mashg'ulotga ajratilgan ma'lum vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshira olish, bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatib o'tilgan

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, insonning bilishi rivojlanib boruvchi, faol jarayondir. Bu, avvalo, jamiyatda yangi ehtiyojlarning tug'ilishi, tegishli ravishda amaliyotning rivojlanishi va takomillashuvi bilan belgilanadi. Bo'lajak pedagoglarining gnoseologik-kompetentlik darajasini rivojlantirish muammosi bo'yicha ilmiy bilimlarning yetishmasligi, shuningdek, gnoseologik-kompetentligini samarali rivojlantirishning asosiy shartlaridan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №PF-6108-farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-qarori, https://lex.uz/docs/5203490

(3). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabrdagi 616-sonli "Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz

(4). Джураев Р.Х. Применение инновационных технологий в образовании. Science and innovation. International scientific journal, Toshkent, 2022, № 3, с. 775–790.

(5). Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. T., "Turon-Iqbol", 2006, 592-bet.

(6). Xodjaboyev A.R., Xusanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. Toshkent, "Fan va texnologiya",2007, 192 b.

(7). Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма, Тошкент, 2015, "Инновацион ривожланиш", 16–17-бетлар.

(8). Хидирова Д.З. Развитие проектной компетентности студентов в образовательном процессе. " Среднее профессиональное образование", Москва, 2021, с. 51–53.

(9). Xidirova D.Z. Pedagogik jarayonni loyihalashning zarur ahamiyati. "Pedagogika", Toshkent, 2022, 50–54-betlar.

(10). Д.З.Хидирова. Развитие проектной компетентности студентов в образовательном процессе. "Среднее профессиональное образование", 2021, с. 51–53.

(11). Xidirova D., Muradov S. O'zbekiston Respublikasi hududida seysmoaktiv hududlar va zilzilaning xavfliligi. Innovative Development in Educational Activities. 2024, T. 3, №. 2, с. 167–172.

(12). K.D.Zayniddinovna. The Importance of the Design of the Pedagogical Process in Improving the Quality of Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices 7, 2022, p. 261–266.

(13). Д.З.Хидирова. Олий касбий таълимда педагогик технологияларини лойиҳалаш – ўқув масадига эришиш омили сифатида. "Kasb-hunar ta'limi", 2 (0109), 2022, 149-бет.

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "O'zbek tili" kafedrasi o'qituvchisi)

MORFOLOGIYA VA SINTAKSISNI BOG'LAB O'QITISH ONA TILINI O'QITISHNING MUHIM PRINSIPI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada morfologiya va sintaksisni bog'lab o'qitish metodikasi va ahamiyati, ushbu sohani qay tarzda o'qitish haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, so'z turkumlarini o'qitish metodikasi bo'yicha amaliy misollar va mashqlarni interfaol usullardan foydalangan holda taqdim etish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *so'z turkumlari, sintaksis, metodika, interfaol usullar, til, ta'lim, pedagogika.*

ОБУЧЕНИЕ МОРФОЛОГИИ И СИНТАКСИСУ КАК ВАЖНЫЙ ПРИНЦИП ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В статье представлена информация о методологии и важности преподавания морфологии и синтаксиса в совокупности, а также о том, как преподавать эту область. Кроме*

того, будут рассмотрены практические примеры и упражнения по методике обучения группам слов с использованием интерактивных методов.

Ключевые слова: *группы слов, синтаксис, методология, интерактивные методы, язык, образование, педагогика.*

TEACHING MORPHOLOGY AND SYNTAX AS AN IMPORTANT PRINCIPLE OF NATIVE LANGUAGE TEACHING

Annotation. *The article provides information on the methodology and importance of teaching morphology and syntax together, as well as how to teach this area. In addition, practical examples and exercises on the methodology of teaching groups of words using interactive methods will be considered.*

Key words: *word groups, syntax, methodology, interactive methods, language, education, pedagogy.*

Kirish. Morfologiya va sintaksisni bog‘lab o‘qitish ona tilini o‘qitishning muhim prinsipidir. Bu ikki soha bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, birini bilmasdan ikkinchisini to‘liq anglab bo‘lmaydi. Masalan, so‘zlarning shakl o‘zgarishi (morfologiya) ularning gapda qanday qo‘llanilishiga (sintaksis) bevosita ta’sir qiladi. So‘zlarning turli shakllarini bilmasdan, ularni gapda to‘g‘ri joylashtirish va gapning ma’nosini to‘liq tushunish qiyin. Shuningdek, sintaksis morfologiya orqali o‘rganiladi. Gapning tuzilishi, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, gap bo‘laklarining o‘rni va vazifasi kabi tushunchalarni o‘rganishda morfologik bilimlar muhim ahamiyatga ega. Ona tilini o‘qitishda morfologiya va sintaksisni birgalikda o‘rganish o‘quvchilarga tilni chuqurroq anglab olishga, so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishga, gaplarni o‘qish va yozishga, shuningdek, tilning boyliklarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy maktablarda rus tilini o‘qitishda morfologiya va sintaksisni bog‘lab o‘rganishga lingvodidaktik prinsip sifatida yondashuv M.Shxapaseva [1], N.Kazanskaya [2], rus tilini chet tili sifatida o‘qitishda sintaksis asosida leksika va morfologiyani o‘rganish masalalari Y.Rubsova [3], ta’lim mazmuni komponentlarini bog‘lab o‘rganishning ahamiyati A.Zvezdina [4], ta’lim mazmuni komponentlarini bog‘lab o‘rganishning o‘ziga xos prinsiplari A.Tenixina [5], tadqiq qilingan. L.Lineskaya tadqiqotlarida O.P.Ozerskayaning ilmiy-metodik ishlari tahlili asosida morfologiya va sintaksisni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish metodikasining o‘ziga xos qirralarini ko‘rsatib beradi. O.Levushkina ishlarida so‘z va matn til va madaniyat birligi sifatida talqin qilinib, rus tili darslarida so‘z va matn ustida ishlashning uslubiy imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Muallif maktab rus tili kursida so‘zdan matnga yoki, aksincha, matndan so‘zga yo‘nalishida metodik ishlarni tashkil qilish, bunda leksika, morfologiya va sintaksisni o‘zaro bog‘lab o‘rganish haqida so‘z yuritadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini morfologiya va sintaksisni bog‘lab o‘rganish haqidagi qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, lingvomadaniy, component va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turli ta’lim muassasalarida til sathlarini, ayniqsa, morfologiyani o‘qitish masalasi har bir davrda o‘ziga xos dolzarblik kasb qilib kelmoqda. Uzoq yillar davomida “Ona tili” fani tarkibida tilshunoslik bo‘limlari ketma-ketlikda o‘rganilib kelindi. Bunda fan tarkibida morfologiya markaziy o‘rin egallaydi. Mazkur sath leksik sathga asoslangan holda grammatikani boshlab beradi, shuningdek, o‘quvchilarni sintaktik sathni o‘rganishga tayyorlaydi. Bu esa morfologiyaning maqsadi nafaqat so‘z turkumlari va grammatik shakllar haqidagi bilimlarni o‘rganishdan iborat emasligini ko‘rsatadi, balki tilning turli sathlarni bog‘lovchi, turli til birliklari o‘rtasida munosabatlarni o‘rganuvchi, ayniqsa, grammatika va leksika o‘rtasida bog‘liqlikni o‘rnatuvchi sifatida o‘ta muhim vazifani bajarishini namoyon qiladi. Bu maqsad va vazifalar ijrosi esa til materiallariga turli yondashuvlardan baravar ravishda foydalanilishiga uzviy bog‘lanadi.

Muayyan tilining morfologiya va sintaksisini bog‘lab o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni o‘rganib chiqish uning tarixi va mavjud tajrubalar haqida tasavvur hosil qilishga hamda zamonaviy qarashlar haqida ma’lumot olishga yordam beradi. Xususan, morfologiya va sintaksisni bog‘lab o‘rganish masalasiga ko‘plab olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda va turli davrlarda amalga oshirilgan.

Bu sohadagi tadqiqotlarni shartli ravishda 3 qismga ajratish mumkin:

Sobiq Ittifoq davri (XX asrning 30 – 80-yillari).

Mustaqillik davri (XX asr oxiri va XXI asr boshlari).

Yangi O‘zbekiston davri (2016 – 2024-yillar).

Shuningdek, tadqiqot yo‘nalishlari ham turlicha: muayyan tilda morfologiya va sintaksisning o‘zaro bog‘liqligi; morfologiya va sintaksis o‘qitish metodlari; muayyan tilidagi morfologik va sintaktik xususiyatlar va hokazo.

Sobiq Ittifoqda morfologiya va sintaksisni bog‘lab o‘qitish konsepsiyasi o‘tgan asrning 30-yillaridan fan dasturlariga kiritilib, bu masala yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Aksariyat milliy tillarni o‘qitish metodikasida kuzatilgani kabi Sobiq Ittifoq maktablarida muayyan tilning morfologiya va sintaksisini o‘rganish asosan tushuntirish va taqqoslash usullari ustuvorlik qilgan edi. Bu usullar muayyan tilining grammatik tuzilishini tushunishga va uni amalda qo‘llashga yordam berishga qaratilgan edi.

Tushuntirish usuliga ko‘ra, grammatik qoidalari o‘quvchilarga tushuntirilib, so‘ngra ularga qoidalarni mustahkamlash uchun mashqlar berilgan. Bu metod o‘quvchilarga grammatik qoidalarni yodlashga yordam bergan, aksariyat hollarda ularni amalda qo‘llashga qaratilmagan.

Taqqoslash usuli orqali grammatikaning ikki bo‘limiga xos grammatik hodisalar taqqoslanib, o‘xshashliklar va farqlar aniqlangan. Bu usul o‘quvchilarga tilning grammatik qoidalarini osonroq anglab olishga yordam bergan bo‘lsa ham, ammo ularning tildan faol foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli hissa qo‘sha olmagan. Bu davrning muhim yutuqlari sifatida e’tirof etish zarurki, morfologiyani o‘rganishda so‘z turkumlarining sintaktik xususiyatlarini ochib berish uchun o‘ziga xos materialni taklif qiluvchi, sintaksisning tizimli kursini o‘zlashtirishga tayyorlanish imkonini beruvchi va morfologik materialni chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlashga xizmat qiluvchi salmoqli metodik ishlar yuzaga keldi [7;224-b.].

O‘zbek tili til sathlarini bog‘lab o‘rganish tamoyillari A.Gulomov [8;37-b.], sodda gap sintaksisini o‘r-ganish jarayonida morfologiya uzviyligini ta’minlash masalalari M.Omilxonova [9], morfologiya va sintaksis bo‘limlarini bog‘lab o‘rganishning lingvodidaktik xususiyatlari T.Yusupova [10;35-b.], ta’lim texnologiyalari Bo‘ri Ziyomuhammedov tomonidan chuqur o‘rganilgan (11).

Ma’lumki, morfologiya so‘zni va uning tuzilishini o‘rganadi. Sintaksis esa so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikka asoslanadi. Morfologiya tuzilishini tartibga soluvchi qoidalarni anglatadi, sintaksis esa so‘zlar ketma-ketligi va gap tuzilishini tartibga soluvchi qoidalarni anglatadi.

Maktabda morfologiyani o‘qitishning ham ilmiy, ham amaliy zaruriyati bor. Uning ilmiy zaruriyati shundaki, keyingi bosqichda o‘rganiladigan “Sintaksis” bo‘limi bevosita morfologiya bilan bog‘langan. Chunki kelishik, egalik va shaxs-son qo‘shimchalari, garchand, morfologiya obyekti sanalsa-da, ammo ular gap qurilishida so‘z va so‘z birikmalari orasidagi sintaktik aloqani ta’minlovchi vosita hisoblaniladi. Qo‘shma gap sintaksisini o‘rganishning bevosita yordamchi so‘zlar bajaradigan vazifalar bilan aloqadorligi hisobga olinsa, morfologiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Maktabda morfologiyani o‘qitishning amaliy ahamiyati shundaki, leksikologiyadan egallangan zaruriy bilimlar mazkur o‘rganishda o‘z amaliy ifodasini topadi. O‘quvchi mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganishda so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nosi, uyadosh, shakldosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlarga yana murojaat qiladi va so‘z boyligini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri ham o‘rinli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Morfologiya (grek. morhfos “shakl”, logos “ta’limot” so‘zlaridan olingan bo‘lib) so‘z shakllari haqidagi ta’limot demakdir. Biologiyada shakl tushunchasi Aristotel nomi bilan bog‘lansa, morfologiya terminining kelib chiqishini nemis shoiri Iogann Volfgang Gyote (1790) nomi bilan bog‘lashadi. U uzoq yillar davomida o‘simliklar va hayvonlar tuzilishini o‘rgangan. Shuni ta’kidlash kerakki, nemis anatomi va fiziologi Karl Fridrix Burdax (1800) shu terminni ilk bora qo‘llagan [12].

Tilshunoslikda bu terminning uning bir bo‘limi sifatida qo‘llanilishi esa 1859-yilga to‘g‘ri keladi. Avgust Shleyxer tomonidan tabiiy fanlardan o‘zlashtirilib muayyan tildagi so‘zlar tuzilishi, tarkibini tavsiflovchi bo‘lim nomi sifatida olib kirilgan [13].

Darhaqiqat, biologiyada odam, hayvon organizmi, o‘simlik tuzilishi bilan bog‘langan bu termin tilshunoslikda ham so‘z va uning tuzilishi va shakllarini o‘rganadi.

Tilshunoslikning leksikologiya bo‘limi ham, morfologiya bo‘limi ham so‘z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo‘lim so‘zning qaysi tomoniga e’tibor qaratishi bilan bir-biridan farq qiladi. Leksikologiya leksik so‘z (leksema)larni, ularning atash ma’nolarini o‘rgansa, morfologiya so‘zning grammatik ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllarni, ya’ni so‘zning morfologik shakllarini o‘rganadi. Masalan, *qalam, qalamning, qalamni, qalamga, qalamda, qalamdan* shakllari bir so‘zning turli shakllari hisoblanadi. Bu so‘z shakllarining hammasida takrorlanayotgan qalam qismi ikkita ma’noga ega. Birinchi ma’nosi yozish, chizish uchun mo‘ljallangan grafit toshga yog‘och qoplama o‘rnatilgan o‘quv qurolini bildiradi. Bu qalam leksemasining (leksik so‘zning) atash ma’nosi sanaladi. Leksik so‘zning atash ma’nolari leksikologiyada o‘rganiladi. Shu bilan birgalikda, qalam so‘zi daftar, kitob so‘zlari singari nima? so‘rog‘iga javob bo‘lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma’nolariga ega. Bu esa qalam so‘zining ikkinchi ma’nosi – grammatik ma’nosi sanaladi. Ana shu grammatik ma’nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo‘limida o‘rganiladi. Shunday qilib, morfologiya so‘z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo‘yicha bahs yuri-

tadi va so‘zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma’nolar hosil qilishi bilan bog‘liq qonun-qoidalar o‘rganiladi.

Morfologiyani o‘rganish tufayli o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkur doirasi kengayadi, ularning lug‘at xazinasi boyiydi, morfologik hodisalar bilan tanishish jarayonida imlo savodxonligi rivojlana boradi. O‘zbek tilida so‘z turkumlarini o‘rganish boshlang‘ich sinflarda o‘rganilgan bilimlarga asoslangan holda olib borilishi, egallangan BKMlardan foydalanib, mustaqil ijodiy fikr ifodalash mahorati shakllantirilishi lozim. Maktabda so‘z turkumlari yuzasidan ilk bilimlar 2–4-sinflarda: mustaqil so‘z turkumlaridan ot, sifat, son, olmosh, fe’l; yordamchi so‘z turkumlaridan “Bog‘lovchi” yuzasidan ilk nazariy ma’lumotlar beriladi, 1- va 2-sinflarda so‘zning lug‘aviy manolari, ularga beriladigan savollar o‘rgatiladi. 3-sinfda grammatik termin bilan ifodalanib, so‘zlar turkumlarga birlashtiriladi.

Xulosa. Tajribalardan ma’lum bo‘lmoqdaki, ba’zan grammatik vositalarni aks ettirishda darsliklarda uzviylik kuzatilmayapti. Buning natijasida o‘quvchilar notanish terminlar, tushunchalarga duch kelmoqda, jumladan, aslida 8-sinfda o‘rganilishi zarur bo‘lgan, o‘quvchi ona tili darslarida eshitmagan grammatik tushunchalarni ifodalovchi terminlar 7-sinf darsligiga kirib qolgan: kengaygan birikmali sodda gap, hokim gapning sababini ifodalovchi ergash gap, sabab ergash gaplar mazmuniga mos hokim gap, shart ergash gapni hokim gapga, yozuvda shart ergash gap hokim gapdan kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Шхапацева М.Х. Взаимосвязанное обучение морфологии и синтаксису русского языка в национальной школе как лингводидактический принцип. Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3. Педагогика и психология. 2010, № 3, URL:https://cyberleninka.ru/статья/n/ взаимосвязанное обучение морфологии и синтаксису русского языка в национальной школе как лингводидактический принцип (дата обращения: 18.12.2024).

(2). Казанская Н.В. Изучение синтаксиса в связи с морфологией как основной лингводидактический принцип при освоении грамматики в условиях полиэтнической школы. Современное педагогическое образование. 2019, № 8, URL: https://cyberleninka.ru/ статья/n/ изучение синтаксиса в связи с морфологией как основной лингводидактический принцип при освоении грамматики в условиях (дата обращения: 18.12.2024).

(3). Рубцова Елена Викторовна. Изучение лексики и морфологии русского языка как иностранного на синтаксической основе КНЖ. 2019, № 4 (29). URL: https://cyberleninka.ru/статья/n/ изучение лексики и морфологии русского языка как иностранного на синтаксической основе (дата обращения: 18.12.2024).

(4). Звездина А.О. Взаимосвязь компонентов содержания обучения русскому языку как иностранному // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Серия гуманитарные и социальные науки. 2014, № 3, URL:https://cyberleninka.ru/ статья/n/ взаимосвязь компонентов-содержания-обучения русскому языку как иностранному (дата обращения: 18.12.2024).

(5). Тенихина А.С. Принципы взаимосвязанного обучения в аспекте преподавания русского языка как иностранного. Педагогическое образование в России. 2016, № 12. URL:ttps://cyberleninka.ru/ статья/n/ принципы взаимосвязанного обучения в аспекте преподавания русского языка как иностранного (дата обращения: 18.12.2024).

(6). Левушкина, О.Н. Слово и текст как лингвокультурные единицы на уроках русского языка. О.Н. Левушкина, И Е.Калачева. Известия Южного федерального университета. Филологические науки. 2022, т. 26, № 4, с. 170–175. DOI 10.18522/1995-0640-2022-4-170-175. EDN MGPRSJ.

(7). Озерская В.П. Изучение морфологии на синтаксической основе изд. 2, испр. и доп., Москва, “Просвещение”, 1989, 224 с.

(8). Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподования родного (узбекского) языка. Дис. док. пед. наук., Тошкент, ТГПИ, 1991, 37-бет; Ona tili o‘qitish metodikasi, darslik, 2012.

(9). Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rganish. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1991.

(10). Юсупова Т. The forms of interrelation with topics of syntax in revising morphology. Journal of Critical Reviews, 2024, p. 405 – 407. https://tsuull.uz/uz/content/yusupova-tursunoy-axmedovna; Юсупова Т., Юсупова Т. Повторение морфологии в 8 классе на основе материалов учебника. Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba. Toshkent, 2024, 707–710-betlar.

(11). Ziyomuhammeddov Bo‘ri. Ta’lim texnologiyalari. T., 2012, 35-bet.

(12). Васильева Г.М. И.В.Гёте о морфологии языка. Гуманитарный вектор. Серия педагогика, психология, 2010, № 2. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/i-v-gyote-o-morfologii-yazyka (дата обращения: 22.12. 2024); Гёте И.В. Морфология животных. Морфология растений (под редакцией и с предисловием А.А.Богданова. Перевод с немецкого, составление и комментарии В.О.Лихтенштадта). Ленанд, 2021.

(12). Десницкая А.В. О лингвистической теории Августа Шлейхера (к 150-летию со дня рождения), “Вопросы языкознания”, Москва, 1971, с. 9.